

IJTIMOIIY-MADANIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDA MADANIYATLARARO TO'SIQLARNI BARTARAF ETISH

Sindorov Rajapboy Ulug'bek o'g'li
Samarqand davlat tibbiyot universiteti o'qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21460118>

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv davrida shaxsning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini shakllantirishning muhim jihatlari hamda muloqot jarayonida yuzaga keladigan madaniyatlararo to'siqlarni bartaraf etish muammolari tadqiq etiladi. Muallif madaniy tafovutlar, stereotiplar va til to'siqlarining samarali muloqotga ta'sirini tahlil qilgan holda, ularni yengib o'tishning pedagogik va psixologik mexanizmlarini taklif etadi. Maqolada madaniyatlararo bag'rikenglik (tolerantlik) va moslashuvchanlikni rivojlantirish orqali muloqot samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-madaniy kompetensiya, madaniyatlararo muloqot, madaniyatlararo to'siqlar, stereotip, globallashuv, madaniy moslashuv, bag'rikenglik, pedagogik yondashuv

ПРЕОДОЛЕНИЕ МЕЖКУЛЬТУРНЫХ БАРЬЕРОВ В ПРОЦЕССЕ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ

Аннотация: В данной статье исследуются важные аспекты формирования социально-культурной компетенции личности в эпоху глобализации, а также проблемы преодоления межкультурных барьеров, возникающих в процессе общения. Анализируя влияние культурных различий, стереотипов и языковых барьеров на эффективность коммуникации, автор предлагает педагогические и психологические механизмы их преодоления. В статье разработаны практические рекомендации по повышению

эффективности общения через развитие межкультурной толерантности и адаптивности.

Ключевые слова: социально-культурная компетенция, межкультурная коммуникация, межкультурные барьеры, стереотип, глобализация, культурная адаптация, толерантность, педагогический подход

OVERCOMING INTERCULTURAL BARRIERS IN THE FORMATION OF SOCIOCULTURAL COMPETENCE

Abstract: This article explores the critical aspects of developing individuals' socio-cultural competence in the era of globalization, alongside the challenges of overcoming intercultural barriers that arise during communication. Analyzing the impact of cultural differences, stereotypes, and language barriers on effective communication, the author proposes pedagogical and psychological mechanisms to overcome them. The article provides practical recommendations for enhancing communication efficiency by fostering intercultural tolerance and adaptability.

Keywords: socio-cultural competence, intercultural communication, intercultural barriers, stereotype, globalization, cultural adaptation, tolerance, pedagogical approach

Chet tilini o'rganish faqat grammatik qoidalar yoki lug'at boyligini egallash bilan cheklanmasligi kerak. Til va madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Agar talaba fransuz xalqining urf-odatlari, qadriyatlari, muloqot madaniyati va dunyoqarashini ham o'rgansa, u tilni yanada to'g'ri va tabiiy qo'llay oladi. Aks holda, stereotiplar yoki o'z madaniyatini mezon qilib baholash (etnosentrizm) boshqa xalqlarning madaniyatini noto'g'ri tushunishga olib kelishi mumkin [1].

Shuningdek, zamonaviy axborot oqimi juda tez o'zgarayotganligi sababli talabalar o'z bilimlarini doimiy ravishda yangilab borishlari zarur. Eski yoki noto'g'ri tasavvurlar chet tilida samarali muloqot qilishga to'sqinlik qiladi. Shu bois o'qitish jarayonida ingliz va fransuz tillarini qiyosiy tahlil qilish, ularning o'xshash

va farqli jihatlarini ko'rsatish, madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish katta ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, ikki chet tilini o'rganishda qiyosiy yondashuv, madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish va stereotiplardan xoli fikrlash talabalar uchun nafaqat tilni mukammal o'zlashtirishga, balki turli madaniyat vakillari bilan samarali va hurmatga asoslangan muloqot o'rnatishga ham xizmat qiladi.

Sotsiomadaniy kompetensiya chet tilini o'rganish jarayonining ajralmas qismi bo'lib, u faqat til birliklarini bilish bilan cheklanmaydi. Ushbu kompetensiya shaxsning boshqa madaniyat vakillari bilan samarali va hurmatga asoslangan muloqot olib borishiga xizmat qiladi. Inson o'zga madaniyatning qadriyatlari, urf-odatlarini, xulq-atvor me'yorlari va muloqot madaniyatini anglagan taqdirdagina haqiqiy kommunikativ muvaffaqiyatga erisha oladi.

V.V. Safonova ta'kidlaganidek, sotsiomadaniy kompetensiya muloqot ishtirokchisiga nafaqat xorijiy muhitda to'g'ri yo'l tutish, balki o'zining nutqiy va noverbal xatti-harakatlarini ham vaziyatga mos ravishda boshqarish imkonini beradi [2, c. 64]. Bu esa madaniyatlararo tushunmovchiliklarning oldini olish, o'zaro ishonch va hamkorlikni mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

Shu bois zamonaviy ta'lim tizimida sotsiomadaniy kompetensiyani shakllantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Tilni o'qitishda grammatik bilimlar bilan bir qatorda, o'quvchilarning madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish ham ustuvor vazifa bo'lishi kerak. Natijada ular global jamiyatda turli madaniyat vakillari bilan erkin, bag'rikeng va samarali muloqot qila oladigan yetuk mutaxassis sifatida shakllanadilar.

Ikki xorijiy tilni o'rganishda madaniy hodisalarni qiyosiy tahlil qilish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ayrim hollarda stereotiplar, irim-sirimlar va urf-odatlardagi farqlar yaqqol namoyon bo'lmasa, boshqa hollarda esa

talabalarga ayrim madaniy hodisalarning o'xshash jihatlarini ko'rsatib berish yangi o'rganilayotgan madaniyatni osonroq anglash va qabul qilishga xizmat qiladi.

Shuni ham e'tiborga olish lozimki, fransuz va ingliz tillari nafaqat mos ravishda Fransiya va Buyuk Britaniyada, balki dunyoning ko'plab boshqa mamlakatlarida ham muloqot vositasi sifatida qo'llaniladi. Bundan tashqari, ushbu tillar qator davlatlarda rasmiy til maqomiga ega. Mazkur tadqiqotda qiyosiy tahlilni yanada aniq va ko'rgazmali amalga oshirish maqsadida asosiy e'tibor, asosan, yuqorida qayd etilgan ikki mamlakat – Fransiya va Buyuk Britaniya madaniyatlariga qaratilgan.

Avvalo, ushbu mamlakatlar aholisi bir-birini qanday tarzda qutlashi masalasiga to'xtalamiz. Fransiya "faire la bise" (uchrashganda yonoqdan o'pib salomlashish) an'anasi keng tarqalgan. Odatda bunday salomlashish usuli yaqin do'stlar, tanishlar, oila a'zolari hamda hatto ishdagi hamkasblar o'rtasida qo'llaniladi. Bundan tashqari, salomlashish jarayonidagi o'pishlar soni Fransiyaning turli hududlariga qarab farqlanishi mumkin. Buyuk Britaniya aholisi uchun bunday salomlashish usuli biroz noqulay yoki g'ayrioddiy tuyulishi mumkin, chunki ular uchun qo'l berib ko'rishish eng keng tarqalgan va universal salomlashish shakli hisoblanadi. Shunga qaramay, Fransiya ham, masalan, rasmiy uchrashuvlarda qo'l berib ko'rishish mutlaqo yetarli va maqbul salomlashish shakli sanaladi.

Murojaat shakllarida qo'llaniladigan olmoshlarga ham alohida e'tibor qaratish zarur. Ingliz tilida "you" olmoshi ham "sen", ham "siz" ma'nolarini ifodalaydi. Fransuz tilida esa, xuddi o'zbek tilidagi kabi, ikki xil murojaat shakli – "tu" va "vous" mavjud bo'lib, ularning qo'llanilishi muloqot vaziyati, suhbatdoshlarning yoshi, o'zaro munosabat darajasi hamda boshqa ijtimoiy-lisoniy omillarga bog'liq.

Buyuk Britaniyada mehmonga sovg'asiz borish odob me'yorlariga zid deb hisoblanadi. Mezbonlarga sovg'a sifatida vino, shokoladli konfetlar qutisi yoki gullar taqdim etish odatiy hol sanaladi. Biroq agar sizni fransuzlar mehmonga taklif qilgan bo'lsa, ularga vino sovg'a qilish tavsiya etilmaydi. Chunki ayrim hollarda

bunday sovg'a "faux pas" deb baholanadi. Ushbu fransuzcha ibora o'zbek tilida "odob qoidalariga zid xatti-harakat", "noolin ish" yoki "xato" ma'nolarini anglatadi, sozma-soz tarjimada esa "notog'ri qadam" degan ma'noni bildiradi. Bunday sovg'a mezbanning didiga nisbatan ishonchsizlik belgisi sifatida qabul qilinishi mumkin, zero fransuz madaniyatida odatda kechki ovqat uchun ichimlikni mezbanning o'zi tanlaydi.

Madaniyatga oid ayrim faktlar tushunish va yodda saqlash nuqtai nazaridan nisbatan sodda bo'lib, ularni "oxshashlik" tamoyili asosida izohlash mumkin. Masalan, Fransiyada qavatlar hisobi bizning tushunchamizdagi ikkinchi qavatdan boshlanadi, binoning birinchi qavati esa "rez-de-chaussée" deb ataladi. Buyuk Britaniyada ham shunga oxshash holat kuzatiladi: birinchi qavat "ground floor" deb nomlanadi va undan keyingi qavatlar first floor, second floor, third floor tarzida hisoblanadi.

Demak, yuqorida keltirilgan misollar shundan dalolat beradiki, ayrim hollarda o'rganilayotgan tillar mamlakatlari vakillarining sotsiomadaniy xususiyatlari hamda an'analari bir-biriga mos keladi, ayrim hollarda qisman oxshash bo'ladi, ba'zi vaziyatlarda esa ular mutlaqo farqlanadi. Shu munosabat bilan talabalarda sotsiomadaniy kompetensiyani shakllantirishga ko'maklashishi mumkin bo'lgan quyidagi metodik tavsiyalarni taklif etish mumkin.

1. Madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda madaniy jihatdan xos leksik birliklar va milliy realiyalar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan autentik matnlardan foydalanish tavsiya etiladi. Masalan, bir xil mavzuga bag'ishlangan, biroq fransuz va ingliz tillarida yozilgan ikkita matn tanlanishi mumkin. Ularning har biri o'rganilayotgan til mamlakatining madaniy xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Shuningdek, moslashtirilmagan (autentik) matnlar talabalarda til taxmini (lingvistik taxmin) ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur ko'nikma chet tili sohiblari bilan real muloqot jarayonida matn yoki xabarning asosiy mazmunini anglash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Mashg'ulotlarda videomateriallardan foydalanish tavsiya etiladi. Ular orqali xorijiy madaniyatda amal qilinadigan va qo'llaniladigan nutqiy hamda nonutqiy xulq-atvor qoidalari (imo-ishoralar, mimika), shuningdek, nutq odobi me'yorlarini yaqqol namoyish etish mumkin. Keyingi bosqichda talabalarga mahsuldor nutq faoliyati turlarini (gapirish va yozish) rivojlantirish maqsadida o'zlarini muloqot ishtirokchisi sifatida sinab ko'rish taklif etiladi. Jumladan, ular dialoglar tuzishlari, tinglangan audiomatn va tomosha qilingan videolavhalarda aks etgan milliy-madaniy realiyalar asosida muloqot vaziyatlarini modellashtirishlari mumkin. V.P.Furmanova fikricha, "xorijiy tilni madaniyatlararo muloqotning tarkibiy qismi sifatida kommunikativ diskurs orqali, til bilimlari va kommunikativ-xulqiy qoidalarni qiyoslash, turli lingvomadaniy hamjamiyat vakillarining o'zaro hamkorligi asosida o'rganish xorijiy tillarni madaniyatlararo kommunikatsiya kontekstida o'qitish uchun yangi sharoitlarni yaratadi" [3, 267-b.].

3. Talabalarning motivatsiyasini qo'llab-quvvatlash maqsadida ularning o'rganilayotgan tillar mamlakatlari madaniyatiga oid bilimlarini haddan tashqari qat'iy baholamaslik, aksincha, ularning tashabbuskorligini rag'batlantirish va ularni sun'iy cheklovlarga solmaslik lozim. Madaniy bilimlarni interfaol shaklda, masalan, mashg'ulotlar doirasida milliy va an'anaviy bayramlarni tashkil etish orqali taqdim etish maqsadga muvofiqdir. Bu talabalarga xorijiy til muhitini bevosita his etish imkonini beradi.

Bundan tashqari, birinchi bandeda qayd etilgan turli janrdagi matnlar, audio va videomateriallardan gapirish, o'qish, yozish hamda tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, chet tilida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish maqsadida foydalanish talabalarda mustaqil ravishda videoroliklar va badiiy filmlarni ham birinchi, ham ikkinchi xorijiy tilda tomosha qilishga, shuningdek, o'zlarini qiziqtirgan adabiyotlarni asl nusxada mutolaa qilishga bo'lgan motivatsiyani kuchaytirishi mumkin.

XULOSA. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-madaniy kompetensiyani shakllantirish zamonaviy ta'lim va madaniyatlararo muloqotning eng ustuvor vazifalaridan biridir. Madaniyatlararo to'siqlarni (stereotiplar, etnosentrizm, til va noverbal tafovutlar) muvaffaqiyatli bartaraf etish faqatgina til o'rganish bilan cheklanib qolmay, balki o'zga madaniyatlarning qadriyat va normalarini chuqur tushunish va hurmat qilishni talab etadi. Pedagogik jarayonda muloqotning ijtimoiy-madaniy jihatlariga urg'u berish, talabalarda madaniyatlararo bag'rikenglik (tolerantlik) va moslashuvchanlikni rivojlantirish kelajakda turli xalqlar vakillari o'rtasidagi tushunmovchiliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, madaniyatlararo to'siqlarni bartaraf etish tizimli yondashuvni talab etadi va u shaxsning global dunyoda muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta'minlovchi asosiy omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Брыксина И.Е., Поляков О.Г. Межкультурное обучение на занятиях по французскому языку как второму иностранному после английского // Язык и культура, № 49. – Томск: ТомскГУ, 2020. – С. 186-198.
2. Сафонова В.В. Социокультурный подход: ретроспектива и перспективы // Ученые записки национального общества прикладной лингвистики. 2013. № 4(4). С. 53-72.
3. Фурманова В.П. Межкультурная коммуникация как методология иноязычного образования // Язык и культура, № 56. – Томск: ТомскГУ, 2021. – С. 254-272.